



DESTRUCTIVE CHANGES IN THE MENTALITY OF THE UZBEK PEOPLE UNDER THE INFLUENCE OF COMMUNIST IDEOLOGY

Raushana Kurbanliyazova

Associate Professor, PhD

Urgench Branch of the Tashkent Medical Academy

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Communist ideology, politics, mentality, dependence and worship of the state, everyone's thinking the same, philanthropy, indifference.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: During the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, a policy based on tyranny and oppression of the people prevailed in Turkestan. The humiliation and repression of the local population intensified and reached its highest level during the Soviet era, which came to power as a result of the October Revolution. The article highlights the destructive changes that have occurred in the mentality of our people under the influence of the authoritarian regime that has violated independent statehood in Turkestan and trampled on language, culture, traditions, and national values.

KOMMUNISTIK MAFKURA TA'SIRIDA O'ZBEK XALQI MENTALITETIDA SHAKLLANGAN DESTRUKTIV O'ZGARISHLAR

Raushana Kurbanliyazova

Dotsent, PhD

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

O'zbekiston, Urgench

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Kommunistik mafkura siyosati, mentalitet, davlatga qaramlik va sig'inish, hammaning bir xil fikrlashi, fikriy boqimandalik, loqaydlik.

Annotatsiya: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX boshlarida chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda istibdodga va xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi. Mahalliy aholini xo'rlash va qatag'on etish oktyabr to'ntarishi tufayli hokimiyatga kelgan sho'ro saltanati davrida yanada kuchayib, eng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Maqolada Turkistonda mustaqil davlatchilikni poymol etgan, til, madaniyat, urf-odatlar, milliy

qadriyatlarni oyoqosti qilgan mustabidlik tuzumi ta'sirida xalqimiz mentalitetida paydo destruktiv o'zgarishlar yoritilgan.

ДЕСТРУКТИВНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В МЕНТАЛИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО- НАРОДА ПОД ВЛИЯНИЕМ КОММУНИСТИЧЕСКОЙ ИДЕОЛОГИИ

Раушана Курбаниязова

Доцент, PhD

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Политика Коммунистической идеологии, менталитет, зависимость от государства и поклонение ему, умственная апатия, безразличие.	Аннотация: В период правления царской России во второй половине XIX — начале XX века в Туркестане господствовала политика, основанная на тирании и угнетении народа. Унижения и репрессии в отношении местного населения усилились и достигли наивысшего уровня в период советской власти, пришедшей к власти в результате Октябрьской революции. В статье освещаются деструктивные изменения, произошедшие в менталитете нашего народа под влиянием авторитарного режима, попиравшего независимую государственность в Туркестане, растоптавшего язык, культуру, традиции, национальные ценности.
--	--

KIRISH

XX asr jahon tarixida alohida o'ringa ega bo'lib, bu davrda hayot ikki yo'nalishda kechdi. Bir tomondan demokratiya, fan va texnika rivojlanib, taraqqiyot yuqori bosqichga ko'tarildi. Ikkinchi tarafdin dahshatli fojealar, birinchi jahon urushi, sovet davlatining o'rnatilishi va ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga juda katta ofat va kulfatlarni olib keldi.

Kommunistik mafkura ta'sirida shakllangan totalitar va avtoritar rejim jamiyatda qotib qolgan tushunchalar – dogmatizmni turmush tarziga aylantirdi. Yangilikni qabul qila olmaslik, har qanday ijobiy siljishlarga shubha bilan qarash kabi illatlarga keng yo'l ochib berdi.

Sovet davlatining olib borgan mustamlakachilik siyosati natijasida xalqimiz milliy histuyg'ulari, o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, g'ururlanish, faxrlanish kabi insoniy fazilatlaridan ayrildi. Natijada millat mentalitetida transformatsiyalashuv jarayonlari yuzaga kela boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jamiyatda mentalitet masalasi, davr o'zgarishlari natijasida yuzaga keladigan insonlar onguta-fakkuridagi o'zgarishlarni olimlardan J.Tulenov, M.Bekmurodov, N.Jo'raev, S.Otamurodov, B.To'ychiev, H.Ziyoev, T.Karim o'z asarlarida ilmiy jihatdan tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini: ob'ektivlik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyili, analiz va sintez, umumlashtirish usullari tashkil etadi.

Natiga va muhokama

Kommunistik mafkura "sotsializm" tuzumi ta'sirida xalqimiz mentalitetidagi destruktiv o'zgarishlar quyidagilardan iborat: *mutelik (qulchilik), davlatga qaramlik va sig'inish, itoatkorlik, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlikning bo'g'ilishi, hammaning bir-xil fikrlashi, tashmachilik-yulg'ichlik, davlat mulkini talon-taroj qilish, fikriy boqimandalik, loqaydlik, hissizlik kayfiyati, hamma narsaga fikrlamasdan va munosabat bildirmasdan tayyor turish illatlari.*

O'zbekiston amalda siyosiy jihatdan Rossiyaning tarkibiy qismiga aylantirilgan bo'lsa ham, milliy davlat, milliy qo'shin va milliy boshqaruv tizimi tashkil etilmadi. Uning o'rniga mustamlakachilik siyosati va milliy zulmni ta'minlovchi totalitar tuzum o'rnatildi. Respublika maqomi berilib, parlament, konstitutsiya, bayroq, madhiya va gerb joriy etilgan bo'lsa ham, xalqqa siyosiy va insoniy huquqlar berilmadi, qattiq nazorat va ta'qib hukm surdi. Rahbarlik lavozimlariga o'zbeklar qo'yilgan bo'lsa ham, lekin ular markazning o'ta *itoatkor xizmatkorlari* edi. Ularning zimmasiga kommunistik g'oyalarning samaradorligini ta'minlash, turli-tuman boylik va daromadlarni ikki qo'llab markaz xazinasiga topshirish yuklatildi. Bu rahbarlar "zanjirband hukmdorlar" bo'lishgan. Bu holat xalqimiz mentalitetida *mutelikning* shakllanishiga olib keldi.

Xalqimiz boshiga tushgan siyosiy, adolatsiz qatag'onlarga qarshi ommaviy ravishda bosh ko'tarmay katta-kichik majlislarda uni qo'llab-quvvatlashi va partiyaga minnatdorchilikni izhor etishining o'zi ham qul tabiatlikni ko'rsatgan. Bu holat Kommunistik partiyaning ulug' millatchilik siyosatining amalga oshirilishi, o'zbek tilining kamsitilishi va unga davlat maqomi berilmasligi, rus tilini ikkinchi ona tili deb baholanishi *mutelik va itoatkorlikni* yanada mustahkamladi [4, 374-375].

Qulchilikning iqtisodiy asoslari:

Sovet davrida ming yillar mobaynida hukm surib kelayotgan iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirish natijasida, xususiy mulkchilik, erkin bozor va savdo-sotiq, erkin ishbilarmonlik va ishlab chiqarish taqiqlandi. Tabiatdagi barcha yer osti va usti boyliklari, sanoat korxonalari, savdo shahobchalari davlatning mulkiga aylantirildi. Sovet hukumati shu tarzda xususiy mulkchilik va erkin bozorni qo'porib tashladi. Bu esa butun mamlakat bo'ylab ocharchilik, qahatchilik va ommaviy kasalliklar yuzaga kelib, millionlab kishilarning yostig'ini quritdi. Xususiy mulkka qarshi kurashlar jarayonida minglab kishilar o'ldirildi, hibsga olindi va surgun qilindi.

Xususiy mulksizlik ko'p odamlarning *ko'zini och va tashmachi* qilib qo'ydi. Natijada xalqimiz mentalitetida "*tashmachilik*" qaror topdi. Odamlar qaysi korxona va tashkilotlarda

ishlasalar, ishlab chiqargan mahsulotlariga qarab – non, un, kiyim-kechak, go'sht, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni bekitib olib chiqishga majbur bo'lganlar. Rasmiy suratda "tashmachi" deb nom olganlar tomonidan davlat mulkini talash ommaviy tus olib ketganligi uchun militsiya xodimlari reydlar o'tkazib turganlar. Ular ishchi-xizmatchilarni korxonadan chiqayotganda tintuv o'tkazib, mollarni olib qolar edi. Bunday holat kolxoz va sovxozlarda ham davom etgan. Tashmachilik va yulg'ichlik, qul tabiatlikning tarkibiy qismi bo'lib *boqimandalik* kayfiyatidagi kishilar tomonidan qilinadigan ish edi. Davlat mulkini talon-taroj qilmaslikning iloji yo'q edi. Sababi, bor-yo'g'idan ayrilgan xalqning davlat tomonidan belgilangan o'z miqdordagi maoshdan tashqari daromadi bo'lmagan. Chunki, tabiat va olamdagi barcha borliq va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yagona egasi davlat hisoblangan, daromadlar uning xazinasida saqlangan[4, 376-377].

Kommunistlar tomonidan 1929-1930 yillarda yoppasiga jamoalashtirish siyosati olib borildi. Jamiyatda ijtimoiy mulkchilikka asoslangan munosabatlarning kelib chiqishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligining yo'qolishi, ish haqining bir xilda tenglashtirilishi, ijodiy rag'batlantirishga barham berilishi, raqobatning yo'qolishi, byurokratik munosabatning avj olishi jamiyatda ma'naviy inqirozning kuchayishiga, kishilar ongida *boqimandalik* kayfiyatining muqim o'rnashib qolishiga olib keldi.

Kishilarda ekspluatatsiya qilishning yanada og'ir ko'rinishlari hayotga tadbqiq etila boshlandi. Eng dahshatlisi kishilarda mulkka egalik hissining so'nishi, ularda mulkka begonalashuv kayfiyatlari qaror topa boshladi. Mulk umumxalq yoki davlat mulki deb e'lon qilingani bilan haqiqatda kishilar mulkdan, mulk oldidagi mas'uliyatdan ajratib qo'yilgan edi. Ijtimoiy mulkchilikka asoslangan jamiyatda kishilarda o'z mehnatidan manfaatdorlik hissining yo'qolishi birinchi navbatda shaxsning zarur bo'lgan erkinligini bo'g'ib qo'yar edi[5, 119-120]. Oldindan tuzilgan va aniq rejalashtirilgan vazifalarning bajarilishini kimdir va kimlardir nazorat qiladi, buyruq beradi, ommaviy safarbarlikni tashkil etadi. Mutlaq ko'pchilik esa *itoatgo'y, labbaygo'y ijrochiga* aylanadi. Bunday holat jamiyatda erkin fikr, erkin faoliyat va demokratiyaning boshqa ko'rinishlarini cheklab qo'yadi. Natijada totalitarizm vujudga keladi, shakllanadi, ildiz otadi va bora-bora avtoritar mohiyat kasb etib, jamiyatni buyruqlar asosida boshqarish, ijtimoiy hayotni bir kishining kayfiyati va talablari asosida tashkil etish tamoyillari vujudga keladi. Jamiyatni bunday boshqarish usuli, ayniqsa sotsializm sharoitida asosiy qoidaga aylantirildi [2, 246].

Sho'rolar tomonidan amalga oshirilgan jamoalashtirish natijalari nimalardan iborat edi:

– *Birinchidan*, tub yerli aholining 80 foizdan ortig'i erkin mulkchilik va bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloqlarda yashar edi. Jamoalashtirish siyosatining amalga

oshirilishi natijasida erkin mulkchilikning va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining har qanday ko‘rinishlariga abadiy barham berildi. Xususiyl mulkchilik batamom tugatildi.

– *Ikkinchidan*, jamoalashtirish siyosatining qishloqda amalga oshirilishi natijasida Sho‘ro hukumati inson va fuqarolarning barcha huquq va erkinliklarin oyoq osti qildi. Og‘ir va dahshatli mehnat ekspluatatsiyasi xotin-qizlar va yosh bolalarni bir umrga mayib-majruh qildi. Xo‘jalikda dehqonlarga oylik to‘lanmas, mehnat haqi yozilardi, xolos. Ular asosan tomorqa hisobidan kun kechirganlar. Arzimagan “gunoh” (ishga chiqmaganligi, tirikchilik tashvishlari bilan shug‘ullanganligi) uchun ularning tomorqa yerlari tortib olinar, katta soliq to‘lovlari joriy qilinar edi. Og‘ir kulfat va jabr zulmlardan qochib ketmaslik uchun dehqonlarga pasport berish tartibi ham o‘rnatilmagan [3, 371-372].

Hammamizga ma‘lumki, xalqimiz so‘nggi 70 yil mobaynida davlatga *qaramlik va sig‘inish asosida yashadi*. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab kelindi. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o‘rinda, fuqaro, shaxs manfaati esa deyarli hisobga olinmasligi eski konstitutsiyalarning har qaysi moddasida yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Demak *beparvolik, loqaydlik – irodasi zaif, qat‘iyatsiz odamlarga xos bo‘lib*, insonni ma‘naviyatdan, umuman insonlik martabasidan mahrum etadigan illatdir.

“Beparvolik (beparqlik, e‘tibor sizlik, loqaydlik) – kishidagi o‘zgarishlar hayotiga, atrof-voqelikka e‘tiborsizlik, loqaydlikni anglatuvchi tushuncha bo‘lib, ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan, Vatan taqdiri hal bo‘layotgan pallalarda kishilardan yuksak faollik, mas‘uliyat talab qilingan sharoitdagi befarqlik nafaqat illat, balki jinoyat hamdir”[7, 70].

Birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan qo‘rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo‘ladi. Ular hatto o‘z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi. Azaldan ma‘lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi, siz uchun oldindan ma‘lum bo‘ladi. Lekin loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo‘lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”[6, 123-124].

Qaerdaiki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma‘naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi.

Shundan ko‘rinadiki, qulchilikning iqtisodiy zaminini xususiy mulkchilik va unga bog‘liq turli sohalarning taqiqlanishi, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlikning bo‘g‘ilishi, majburiy mehnat, ishga yarasha haq to‘lamaslik, *boqimandalik* va “*qorin to‘ysa bas*” degan tuyg‘ular tashkil etgan.

Zo‘ravonlik va xudbinlik shaklidagi avtoritar axloq, avtoritar kayfiyat va fe‘l-atvor garchi fuqarolar manfaatlariga zid bo‘lsa-da o‘ziga xos qadriyatlar darajasiga majburan ko‘tariladi. Natijada *hammaning bir xil fikrlashi, yuqoridan bildiradigan har qanday buyruqning muhokamasiz, munozarasiz, mushohada qilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish va so‘zsiz bajarish* tamoyili vujudga keladi. Bu o‘z-o‘zidan bir-necha asrlar mobaynida shakllangan an‘analar, urf-odatlar, turmush tarzi, adabiyot, san‘at, umuman, fuqarolar qalbi va ruhiyatini o‘zida mujassam etgan bir butun madaniyatning inqiroziga olib keldi. Natijada *fikriy boqimandalik, befarqlik, hissizlik kayfiyati butun jamiyat kayfiyatiga, axloqiy me‘yorlariga* aylanadiki, bunday sharoitda taraqqiyot va istiqbolga o‘rin qolmaydi [2, 247].

Qulchilik ma‘naviy hayotda ham o‘z ifodasini topdi. Milliy his-tuyg‘ular, o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, g‘ururlanish, faxrlanish va boshqa oliy insoniy fazilatlar hibsga olindi. O‘z ona yurtiga sodiq kishilar “millatchi, xalq dushmani” va “imperializm ayg‘oqchilari” singari qalbaki aybnomalar bilan otildi va uzoq muddat qamoqqa hukm qilindi. Ularning oila a‘zolari ham qamaldi, ta‘qib ostiga olindi va uzoq joylarga surgun qilindi. Shu tariqa, milliy g‘oya va ma‘naviyatga zarba berilib, ulug‘ millatchilik suvlari bilan sug‘orilgan kommunistik g‘oyalar kishilar ongiga zo‘ravonlik bilan singdirildi. Ularni amalga oshirishda tarix, falsafa, KPSS tarixi, ilmiy kommunizm, ateizm, adabiyot, iqtisod va huquqshunoslik sohalari jalb qilindi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari va san‘at tarmoqlari ham kommunistik g‘oyalarni zo‘r berib targ‘ib qilganlar. Natijada ma‘naviyatda milliylik yo‘qolib, u kommunistik g‘oyalarning asiriga aylandi. Ayniqsa islom dinining taqiqlanishi, masjid va madrasalarning yopilishi va tarixiy yodgorliklarning vayron qilinishi, tarix fanining soxtalashtirilishi ma‘naviy hayotni yanada qashshoqlashtirdi. O‘zbek xalqining o‘tmish zamonlarda fan va madaniyat sohalarida qo‘lga kiritgan yutuqlari inkor etildi. O‘zbek xalqining milliy g‘oya va ma‘naviyatiga zarba berilib, o‘rniga kommunistik g‘oyaning kiritilishi qulchilikning muhim alomatlari hisoblangan, chunki bu g‘oya ulug‘ millatchilik va qulchilikni o‘zida aks ettirgan [4, 377-378].

Kommunistik partiya tomonidan olib borilgan siyosatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- Sho‘ro davrida O‘zbekistonda mustamlakachilik va ulug‘ millatchilik siyosati amalga oshirilgan;
- Respublika rahbarlari mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosatni yurgizishdan mahrum etilgan, ular amalda markazning itoatkor xizmatkorlari bo‘lishgan;

- O‘zbek tiliga davlat maqomi berilmadi, milliy pul joriy etilmadi;
- Xalq ommasiga siyosiy va insoniy huquqlar berilmadi, ularning siyosiy faoliyati bo‘g‘ildi va tashqi dunyo bilan aloqa qilishga yo‘l berilmadi;
- Xususiy mulkchilik, erkin bozor va savdo-sotiq, erkin ishbilarmonlik va ishlab chiqarish ta‘qiqlandi;
- Mehnatkash ommaning maosh vositasida davlatga chambarchas bog‘lab qo‘yilishi va boshqa daromad manbai qolmaganligi ularni *davlatga sig‘inish va itoat etishga* majbur qildi;
- O‘zbekistondan xalqimizning barcha boyliklari (paxta, ipak, noz-ne‘matlar, oltin, gaz, vol‘fram va boshqalar) tinimsiz olib chiqib ketildi, natijada O‘zbekiston Rossiyaning xom-ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylanishi ham xalqimiz tabiatida *qulchilik, mutelikni* keltirib chiqardi;
- Xalqimizning milliy his-tuyg‘ulari, *o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, g‘ururlanish va faxrlanish singari oliy fazilatlariga* zarba berildi;
- Xalqimizning olamshumul ahamiyatga molik boy tarixi soxtalashtirildi, uni xolis o‘rganish va targ‘ib qilishga yo‘l qo‘yilmadi;
- Milliy g‘oya va ma‘naviyat hibsga olinib, kommunistik g‘oya zo‘ravonlik bilan kiritildi, bu g‘oya xalqning ongi va dunyoqarashini qorong‘ilashtirib qo‘ydi;
- Mamlakatda yagona davlat mulk egaligi hukm surib, fuqarolar uning jonli mulkiga aylantirildi, *qullar o‘z-o‘zidan davlatniki bo‘lib qoldi*.

Jamiyatda muxolifat kuchlarga yo‘l bermaslik totalitarizm uchun xos bo‘lib, o‘z saflarini zo‘r berib sadoqatli maslakdoshlari, ko‘r-ko‘rona itoatgo‘y laganbardorlar bilan to‘ldirish jamiyat barcha qatlamlarini bir xil fikrlab, bitta g‘oyani qo‘llab-quvvatlashga olib keldi. Boshqacha aytganda kommunistik aqidaparastlik, mafkuraviy fanatizm barqaror bo‘lgan jamiyat qurildi. Ana shu tarzda osonlik bilan, hech qanday to‘siqlarga uchramay hokimiyatni egallash imkoniyatini qo‘ldan bermay yashadi. Bu tarixiy jarayon totalitarizmning eng oliy ko‘rinishi sifatida umuminsoniyat tarixiga alohida bosqich sifatida kirdi.

Frantsuz faylasufi va siyosatshunosi R.Aron (1905-1983) 1963 yilda yozgan “Demokratiya i totalitarizm” asarida totalitarizmning ijtimoiy –tarixiy va siyosiy mohiyatini quyidagicha tushuntirgan:

- totalitarizm qandaydir bir partiyaga siyosiy faoliyat yurgizish uchun monopol huquq beradigan sharoitda yuzaga keladi;
- ushbu partiya, eng avvalo yagona, boobro‘ avtoritet maqomini beruvchi mafkuraga ega bo‘lib, keyinchalik ushbu mafkurani u rasmiy davlat haqiqati darajasiga ko‘taradi;

– ushbu rasmiy haqiqatni targ‘ib qilish uchun davlat tazyiq o‘tkazishning mutlaq huquqi va e‘tiqod vositalariga bosim o‘tkazish vakolatini qo‘lga kiritdi. Davlat va uning vakillari ommaviy axborot vositalariga butunlay o‘z hukmini o‘tkaza boshlaydi;

– iqtisodiy va kasbiy faoliyatning ko‘pchilik turlari davlat ixtiyoriga o‘tadi;

– har qanday faoliyat davlat xarakteriga ega va mafkuraga bo‘ysunishi sababli, iqtisodiy yoki kasbiy sohadagi har qanday gunohga mafkuraviy tus beriladi [1, 110-111].

Kommunistik partiya mafkurasi olib borgan terror usuli bilan navbatma-navbat, bosqichma-bosqich repressiyalarni tashkil etdi. Aholining ma‘rifatli qatlamini yo‘q qilib, *avom xalqdan iborat itoatkor, hamma narsaga fikrlamasdan, munosabat bildirmasdan tayyor turish illatlarini egallagan, ruhan ozor chekkan va ma‘nan qashshoq* jamiyatni vujudga keltirdi.

Kommunistlar fikrlar xilma-xilligini, qarashlar rang-barangligini, siyosiy plyuralizmni xushlamadilar, ularga tish-tirnog‘i bilan qarshi turdilar. Ularning maqsadi barcha xalqlarni birlashtirishni, millatlarni assimilyatsiyalash, milliy til, madaniyat, turmush tarzi va an‘analarni eskilik sarqiti sifatida qoralab, yangi ijtimoiy birlik – sovet xalqini qujudga keltirish goyasini ilgari surdilar.

“Xalqimiz milliy ongi, milliy madaniyati va qadriyatlari rivojlanishini cheklab qo‘yish maqsadida uzoq yillar mobaynida olib borilgan qatag‘onlik siyosati oxir-oqibatda ko‘plab ziyolilarning o‘z ona tilini deyarli unutib qo‘yishga, milliy urf-odatlarini mensimaslikka, evropacha axloq va odobni tarbiyaning bosh mezoni deb bilishi va hurmat qilishiga sabab bo‘ldi. Ular sekin-asta bo‘lsa-da, o‘z ona tilini bilmaydigan, urf-odatlari va qadriyatlarini mensimaydigan “o‘ta zamonaviy” kishilarga aylantira boshladi. Istiqloq bo‘lmaganida bu hol haddan tashqari kuchayib, milliy qadriyatlar rivojlanishi to‘xtab, manqurtlashish jarayoni avj olgan bo‘lardi” [9, 44].

Sobiq sovet davlatida olib borilgan milliy siyosatning asosiy mohiyatini xuddi shu “buyuk” “millat”chilikni ulug‘lash respublikalarning tub millatini unga *itoatkor qilishni* tashkil qilganligi ham uning halokatini tezlashtirgan edi. Sovet davlatining vujudga kelish jarayonidan tortib, to uning halokatga uchraganiga qadar faqat milliy respublikalardan chiqqan millatparvarlarni qirish, ular ongiga “baynalmilallikni” singdirish davom ettirildi. Millatparvarlar “millatchilik”da ayblangan, shovinistlar esa “baynalmilalchi”, deb hisoblangan [8, 206].

O‘tmishni hadeb yomonlayverib, badnom qilaverib, shu darajaga borib yetdikki, kattani hurmat, kichikni izzat qilish unutila boshladi. Odamlardan iymon-e‘tiqod ko‘tarildi, birovlarining dilini ranjitish odatdagi hodisaga aylandi. Sekin-astalik bilan yetim-yesirlar haqiga xiyonat qilish, og‘ir jinoyatlardan ham tap tortmaslik, boylik va mansabga qarab odamlarni hurmat qilish, ta‘magirlik singari eng yaramas, eng razil illatlar paydo bo‘lib, tomir ota boshladi.

Dindor ota-bobolarimiz, suvga tupurma, tabiatni bulgʻatma, daraxtni sindirma, jonivorlarni oʻldirma, nonni uvol qilma kabi oʻgʻitlari unutilib, salbiy hodisalarga duch kela boshladik. Ariqlar va anhorlarga magʻzava toʻkishdan, oʻralarni axlatga toʻldirib qoʻyishdan, korxonalar chiqindilarini daryoga oqizishdan, zaminni, suv va havoni zaharlashdan, umuman tabiatga manqurtlarcha munosabatda boʻlishdan hijolat chekmaydigan boʻlindi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda roʻy bergan va hayotda chuqur ildiz otib ketgan salbiy hodisalar, yaramas illatlar va nuqsonlar odob-axloq va taʼlim-tarbiya masalasida uzoq yillar davomida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar bilan maʼlum darajada bogʻliqdir [9, 48-49].

Respublikada hukm surgan mustamlakachilik siyosati, xususan Kommunistik partiya yuritgan yakkaboshchilikdan iborat maʼmuriy-buyruqbozlik ish uslubi, mamlakatda avj olib ketgan oshna-ogʻaynigarchilik, tanish-bilishlik, qarindosh – urugʻchilik, yulgʻichlik, poraxoʻrlik, tilyogʻmachilik, laganbardorlik va boshqa shu singari yaramas illatlarni keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Арон Р. Демократия и тоталитаризм. –Москва: Текст, 1993. –С. 110-111.
2. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: “Маънавият”, 2008. –Б.246-247.
3. Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. –Тошкент: “Шарқ”, 2011. –Б.371-372.
4. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б.374-378.
5. Карим Т. Миллий тафаккур тараққиётидан. (“Авесто” замонларидан то XXI аср бошларигача). –Тошкент: “Чўлпон”, 2003. - Б.119-120.
6. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: “Маънавият”, 2008. – В. 123-124.
7. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2010. –Б.70.
8. Отамуратов С., Отамуратов С. Ўзбекистонда маънавий руҳий тикланиш. (социал-фалсафий таҳлил). –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2003. - Б. 206.
9. Туланов Ж.Т. Қадриятлар фалсафаси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. –Б. 44-49.